

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining yig'ilish**

BAYONNOMASI №__

11.03.2025

Denov tumani

Yig'ilish raisi: R. Salomova

Kotiba : S. Nasriddinova

Qatnashdilar: Kafedra professor-o'qituvchilar: 10 nafar

KUN TARTIBI:


1.Ochiq dars muhokamasi. Mavzu: "Daraxtlarning kuzgi ko'rinishi" mavzusida hajimdor applikasiya tayyorlash. Rangli qog'ozdan mozayka yasash

Eshitildi:

Yig'ilishni Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri R. Salomova ochib berdi, bugungi kafedra yig'ilishda Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining o'qituvchisi A. Ahmedovning Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs 1-BT-S-22- guruhida – "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanidan "Daraxtlarning kuzgi ko'rinishi" mavzusida hajimdor applikasiya tayyorlash. Rangli qog'ozdan mozayka yasash mavzusidagi 2 soatlik ochiq darsining yutuqlari, haqida so'z yuritdi. -O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ko'rinib turibdi, dars o'tish mahorati talabga javob beradi, nutq madaniyati, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi yaxshi, darsning reglamenti to'g'ri taqsimlandi, AKT dan unumli foydalandi , talabalarning barchasi faol ishtirok etishdi.



Ushbu masala yuzasidan Pedagogika fakulteti sirtqi bo'lim boshlig'i S. Abduraximov so'zga chiqib, dedi: A. Ahmedov tomonidan o'tilgan dars menga juda yoqdi. O'qituvchining bilim darajasi yetarli ekanligi sezilib turibdi. Darsda o'zini tutishi, talabalar bilan munosabati, dars o'tish uslubidan foydalanishi hozirgi yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llayotganligidan dalolat berib turibdi. Ayniqsa amaliy ish jarayonida ko'magi meni hayratga soldi, chunki qog'ozdan mozaika yasash murakkab jarayon hisoblanadi. Ochiq dars davomida ajoyib ko'rgazmalardan foydalanildi. Ayniqsa, darsda "Nilufar guli" metodini yaxshi tushunib berdi. O'qituvchi darsdan ko'zlangan maqsadga erisha oldi deb o'ylayman va namunali deb baholayman.



Shundan keyin DTPI Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh. Suyunov so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: Dars yaxshi tashkil qilindi, o'qituvchi yangi mavzuni talabalarga yaxshi yetkazib berdi. Talabalar amaliy mashg'ulotga juda faol qatnashdi, dars jarayonida AKT dan foydalanib, talabalarni darsga qiziqitira oldi. Faqat darsda ba'zi bir kamchiliklar uchradi, jumladan: darsda ba'zi bir talabalar e'tibordan chetda

qolganday bo'ldi, darsda ba'zan pauzalar kuzatildi, amaliy darsda o'qituvchi kamroq faol bo'ldi.

Darsning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi juda yaxshi bo'ldi.



Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani o'qituvchisi A. Ahmedov tomonidan tashkillashtirilgan: "Daraxtlarning kuzgi ko'rinishi" mavzusida hajimdor applikatsiya tayyorlash. Rangli qog'ozdan mozaika yasash mavzusidagi ochiq darsi na'munali deb baholansin.

Yig'ilish raisi:

R. Salomova

Kotibi:

S.Nasriddinova

